

## **INTEGRATIV YONDASHUV ORQALI BO'LAJAK SHIFOKORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

**Amonov S.J.**

*Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat Tibbiyot instituti Anatomiya, klinik anatomiya kafedrasи  
assistenti.*

[SaidJamsher94@gmail.com](mailto:SaidJamsher94@gmail.com)

**Temirov R.I**

*Buxoro Davlat pedagokika instituti Pedagokika kafedrasи o'qituvchisi*

**Annotation:** O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 47-moddasida har kim boshlang'ich, professional ta'lif olish huquqiga egadirlar. Bo'lajak shifokorlarimiz, tibbiyot oliygohlari talabalari uchun bu ayniqsa juda muhimdir. O'quvchilarda bu xususiyatlarni davolashda, ayniqsa shifokorlik faniga oid bilim, ko'nikma va malakalarining dars jarayonida singdirish bilan birgalikda ularda kompetensiyalarni ham shakllantirilishi lozim. Kompetensiya –muayyan fan bo'yicha o'quvchi egallagan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarini ish jaratonida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni echishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir. Inson qaysi kasb sohibi bo'lishidan qat'iy nazar o'z ishiga, mashg'ulotiga qunt bilan, mehr bilan yondashsa, uning sir asrorini mukammal egallaydi, shu bilan birga o'z-o'zini anglaydi, shu sohada kamol topadi. O'qituvchi ham bolalarni sevsas, tarbiyalasa, o'zi ham ulg'ayadi, donishmandlik kasb etib boradi. O'qituvchi kelajak farzandini tarbiyalab bilim beradi. Zero kelajak yoshlar qolida, ular bizning ertangi kunimizdir.

**Key words:** kmp-kompetensiya, integrativ

**Relevance::** O'quvchilarda Kmpni shakllantirilishi, dars davomida o'quvchining faqat tinglovchi yoki eshitganini takrorlavchi "to'ti"ga emas, balki chuqur mushohada yurituvchi, mustaqil fikrini bayon etuvchi, boshqalar bilan o'zaro hamkorlikda ishlovchi, o'zgalar fikrini hurmat qiluvchi, keng dunyoqarashli shaxsga aylantitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Interfaol metodlarni qo'llab dars o'tish o'quvchilarda har tamonlama ilmiy-nazariy bilimlarni mustaqil egallahsh, bilim va ko'nikma, malakalarini shakllantirish va shu asosida o'quvchilarining ilmiy dunyo-qarashlarini tarkib toptirish hamda faolligini oshirish, erkin fikr yurita olishga o'rgatish, ijodiy qobiliyarlarini aniqlash va ro'yobga chiqarish, o'qituvchi hamkorligini shakllantirish va nihoyat kafolatlangan yakuniy natijaga erishishishni ta'minlaydi. Interfaol usullarda o'qituvchi o'quvchining mustaqil va mukammal bilim olishi uchun muhit yaratmog'i, fan asoslarini egallahshga yo'naltirmog'i, qiziqish, mehr uyg'otish bilan shug'ullanadi.

Tadqiqotchi S.Sh. Akbarova ilmiy maqolasida globallashuv jarayonida kreativ kompetentsiyalar va ularni mustaqil ta'limga qo'llash yo'llari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek talabalar kreativ kompetentsiyalarga ega bo'lishlari uchun ulardan ta'lif – tarbiya jarayonida an'anaviy yondashuvlardan farqli yangi g'oyalar haqida fikrlash, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik talab etilishi haqida fikr yuritgan.

Ta'lim oluvchilardagi kreativlik qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlarini ko'rsatib o'tgan[1].

Tibbiyot oliyohlari talabalari orasida kaspiy maxorat ayniqsa muhim hisoblanadi. Bo'lajak shifokorlarning yaqin qarindoshlarini oddiy qon bosimini o'lchay olishligi yoki ineksiyon muolajalar qila olishidan toki favqulotda holatlarga ham tayyor tura olishi zarur. Tajribali shifokorlar "sen har doim masuliyatli va hushyor holatda bo'lising kerak ishdan tashqari vaqtida, dam olish kunlarida hattoki sayohatga chiqgan paytingda ham" deya ko'p bora nasihat qilishadi. Shifokorlik naqadar ma'suliyatli kasb ekanligini buyuk bobokalonlarimiz Amir Temur, Muhammad Shayboniyxon qayta va qayta takidlashgan. Amir Temur bobomiz qo'shindagi bir tabibni yuzta sara sarbozga alishmasligini. Tabiblar uchun chodirlar qo'shin markazidan joylashganligi tarixiy manba'alarda fakt sifatida kiritilgan.

Zamonaviy o'quv jarayonini talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan yangi, yanada samarali texnologiyalarni izlamasdan tasavvur qilib bo'lmaydi [2]. Anatomiya har qanday tibbiy va biologik universitetda eng muhim fan hisoblanadi. Inson tanasining tuzilishini bilmasdan biron bir klinik fanni o'rganish mumkin emas. Ammo anatomiya barcha tibbiyot talabalari uchun eng qiyin fanlardan biridir. Shuning uchun ushbu kursni sifatli o'qitish munosib mutaxassislarni chiqarish uchun juda muhimdir. Hozirgi bosqichda tibbiyotning istalgan sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash innovatsion texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, anatomiya o'qitishning tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonini tashkil etishda an'anaviy yondashuvlarni zamonaviy, innovatsion o'qitish usullari bilan uyg'unlashtirish eng maqbuldir [3]. Mamlakatimizda tibbiyot oliyohlarda talabalarining yetuk mutaxasis sifatida shakllanishida bo'lajak doktorlarimizda kompitetsiyaning o'rnini tasavvur qilish qiyin bo'lmasa kerak.

Talabalar bilimini nazorat qilish usullaridan biri sifatida kompyuter testini o'tkazish tajribasi kafedra o'qituvchilari va 1 va 2 kurs talabalari tomonidan ijobjiy qabul qilinadi, ular testning texnik tomonini osonlikcha engishadi va mazmuni va to'g'riligidan mamnun. test topshiriqlaridan. Ayrim hollarda esa test natijalari bilan o'qituvchining bahosi o'rtasida tafovut bo'lgan. Ko'rinish turibdiki, bu nomuvofiqlikning sabablaridan biri test nazorati faqat anatomiya bo'yicha nazariy bilimlarni ochib beradi. Talabalarining anatomiya bo'yicha bilimlarini yanada ob'ektiv baholash uchun amaliy ko'nikmalarni sinash bilan birlashtirilishi kerak, masalan, tana a'zosini o'ziga nisbatan joylashtirish, uning tarkibiy elementlarini ko'rsatish, qo'g'irchoq tomirlar, nervlar va ko'rsatish qobiliyati hokazolarda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, bizning fikrimizcha, inson anatomiysi bo'yicha bilimlarni o'rgatish va nazorat qilish uchun zamonaviy texnologiya sifatida qo'llanilishi kerak: nazorat ostida mustaqil ish, bilimlarni test nazorati va og'zaki so'rov, suhbat, seminar va og'zaki imtihon shaklida an'anaviy metodik usullar [4].

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida 1-2 kurslariga o'tiladigan "Anatomiya va Klinik antomiya (OXTA)" fani bo'lajak shifokorlarimiz uchun zaruriy kompitensiyanı shaklantiradi. Ayniqsa reanimatologiya va xirurgiya soxasini tanlagan talabalarimiz "klinik anatomiya (OXTA)" fanida birlamchi va zaruriy bilimlarga ega bo'lismadi. Bilak, son va chakka arteriyalarida pulsni aniqlash, periferik va markaziy venalarning topografiyasi bularning barchasini talabalarimiz kelajakda yetuk mutaxasis bo'lib yetishishida bazaviy bilim manbai bo'lib ularni qo'llay olishligi esa kompitensiya deyiladi. Zamonaviy integrativ yondashuvni esa 3D modellar, innovatsion korpusdagi yangi zamon talablariga mos bo'lgan mulyajlar, ananaviy metodlar (diskussiya, rotatsiya, kuchsiz xalqa va boshqalar) yordamida amalga oshiriladi.

### Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak tibbiyot institute talabalarida kompitensiyanı hosil qila olish kelajakda yetuk mutaxassislarni shakllanishiga bevosita asosiy omil sifatida qarash zarur. Zero kelajak aynan hozirgi kunda tarbiyalanayotgan talabalar bo'lajak shifokorlar qo'lida. Bo'lajak doktorlarni zamonaviy interaktiv metodlarsiz hozirgi zamonaviy tibbiyot dunyosiga kirta olmaymiz.

**Литература:**

1. Акбарова, С. (2022). Основы развития креативных компетентсий студентов в протсессе самостоятельного обучения. Экономика и образование , 23(2), 311– 316. извлечено от [хттп://седр.тсуе.уз/индех.пхп/журнал/артиcle/виew/473](http://седр.тсуе.уз/индех.пхп/журнал/артиcle/виew/473)
2. Burgin MS Pedagogikadagi innovatsiya va yangilik. – Novosibirsk: 2009. – S. 25-30.
3. Sugand K., Abrahams P., Khurana A. Anatomiya anatomiyasi: uni modernizatsiya qilish uchun sharh / K. Sugand // Anat Sci Educ. - 2010. - 3. P. 83-89.
4. Radjabov, A. B., & Khasanova, D. A. (2018). Innovative and traditional approaches to learning of students in the department of anatomy and clinical anatomy of bukhara state medical institute. *Вестник Международного Университета Кыргызстана*, (3), 180-182